



FITRATNING MA'RIFIY IZLANISHLARI VA MILLIY UYG'ONISH KONSEPSIYASI

Ubaydullayev Normuhammad Hasanovich,

Samarqand davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti,

filologiya fanlari doktori

Sultonova Malika Xabibulloyevna,

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asr o'zbek uyg'onish davrining buyuk mutafakkiri Abdurauf Fitratning «Usuli jadid» maktablarini shakllantirishdagi xizmatlari, uning Istanbuldagi ijtimoiy-pedagogik faoliyati hamda asarlaridagi ma'rifiy konsepsiyalar tahlil qilinadi. Tadqiqotda jadidchilik harakatining milliy maorif tizimiga ta'siri va mutafakkirning ta'lim islohotidagi o'rni yoritilgan. Fitratning asarlari misolida ma'rifat yo'lidagi kurashlari tarixiy va falsafiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: *Jadid maktablari, ta'lim tizimi, milliy uyg'onish, metodik ko'rsatmalar, ijtimoiy faoliyat, badiiy meros, islohotlar, tarbiya.*

Abstract: This article analyzes the contributions of Abdurauf Fitrat, a great thinker of the 20th-century Uzbek Renaissance, to the development of "Usul-i Jadid" (New Method) schools, alongside his socio-pedagogical activities in Istanbul and the educational concepts within his works. The research highlights the impact of the Jadidism movement on the national education system and the thinker's role in educational reform. Drawing on the example of Fitrat's works, his struggles on the path of enlightenment are historically and philosophically substantiated.

Keywords: *Jadid schools, education system, national awakening, methodical guidelines, social activity, literary heritage, reforms, upbringing.*



Kirish: O‘rta Osiyo ijtimoiy-siyosiy tafakkuri tarixida jadidchilik harakati murakkab va serqirra yo‘lni bosib o‘tdi. Abdurauf Fitrat ana shu harakatning eng yirik namoyandalaridan biri bo‘lib, u ta‘lim va tarbiyani millat najotining yagona yo‘li deb bildi. Fitratning ma‘rifatparvarlik mafkurasi ijtimoiy jihatdan ancha boy bo‘lib, unda ma‘naviy barkamollik, huquqiy va iqtisodiy islohotlar hamda ilg‘or demokratik institutlarni bunyod etish g‘oyalari markaziy o‘rin tutadi. U Turkiston zaminida nafaqat eski ta‘lim tizimini tanqid qildi, balki jahon andozalariga mos keluvchi yangi modelni taklif etdi.

Ma‘rifiy uyg‘onishning ijtimoiy-huquqiy asoslari. XIX asr oxirlariga kelib Turkiston o‘lkalarida ham burjua mustamlakalari asta-sekin paydo bo‘la boshladi. Natijada eskilikni yanchib tashlab, rus fan va texnikasini o‘rganib, *zamon bilan olg‘a borish yoki feodalizm tuzumida qola berish kerakmi*, degan muammo tug‘iladi. Fitratning ijtimoiy-falsafiy dunyoqarashi asarlarida o‘z aksini topgan. 1915-yilda yozgan «Rahbari najot» asari falsafiy ruhda yozilgan bo‘lib, u o‘zbek xalqining istiqbolini asoslab bergan. Bu asarni u Buxoro amiri Olimxonga bag‘ishlab, undan ma‘rifat yo‘lini ochishni so‘rab najot istagan edi. Fitrat Vatan istiqbolini kuyladi. Yoshlarni Vataniga sadoqatli bo‘lishga chorladi. *Imonli inson – Vatanli inson. Imonga e‘tiqod Vatandan boshlanadi*, degan edi. Imon ruhiy hayotning asosidir. Bunday hayot esa kishilarni faqat yaxshilikka undaydi. Fitrat inson uchun xos bo‘lgan ijobiy, salbiy va axloqiy fazilatlarni asoslab beradi. *Iffat, hayo yaxshilikka yetaklaydi; buxl (baxillik), isrof, nifoq* esa yomonlikdir. Bu fazilatlar mazmunini ochishda islom sharoitida amaliy an‘ana bo‘lib kelgan qarashlarga suyanadi. Fitrat milliy maorif tizimini tubdan isloh qilishda islomni qotib qolgan aqidalardan tozalashni muhim omil sifatida ko‘rsatdi. Uning nazdida, jaholatga botgan jamiyat hech qachon ozod bo‘la olmaydi. Adib «Rahbari najot» asarida ta‘kidlaganidek:

«Dunyoda har bir ishning sababi bor, u sabab – ilmdir. Millatimizning bugungi xorligi va turg‘unligi sababi ham ilmsizlikdir»¹.

¹ Fitrat A. Rahbari najot. – Toshkent: Ma‘naviyat nashriyoti, 2001. – B.45.



Mutafakkir «najot yo‘li»ni qidirar ekan, ilm-fanni faqat diniy emas, balki dunyoviy fanlar – kimyo, fizika, geografiya va xorijiy tillarni egallashda ko‘rdi. Uning ma‘rifiy qarashlari negizida shaxs erkinligi va milliy mustaqillik g‘oyasi yotar edi. Fitratga ko‘ra, ma‘rifatli millat o‘z huquqlarini taniydi va zulmga bo‘yin egmaydi.

Istanbul davri va «Buxoro maorifi» jamiyati. Mutafakkirning 1909–1914-yillarda Istanbulda kechgan tahsil davri uning shijoatli islohotchi sifatidagi qiyofasini shakllantirdi. Fitrat u yerda rasmiy ravishda «Buxoro maorifi» jamiyatini tashkil etdi. Ushbu jamiyat Turkiston yoshlarini xorijga o‘qishga yuborish orqali millatning kadrlar zaxirasini yaratishda muhim poydevor bo‘ldi².

Istanbulda u turk dunyosining ilg‘or ziyolilari bilan muloqotda bo‘lib, ta‘lim tizimini markazlashtirish va o‘quv dasturlarini zamonaviylashtirish tajribasini o‘rgandi. Bu tajriba keyinchalik Buxoro va Turkistonning boshqa hududlarida jadid maktablarining o‘quv rejasini tuzishda asosiy manba bo‘lib xizmat qildi. Jamiyat orqali yuborilgan talabalar keyinchalik Turkiston Muxtoriyati va xalq xo‘jaligining ustunlariga aylanishdi.

«Usuli jadid» – Milliy maorifning yangi qiyofasi. Fitrat an‘anaviy ta‘limdagi quruq «yod olish» (sxolastik) metodidan voz kechib, mantiqiy mushohadaga asoslangan ta‘limni birinchi o‘ringa qo‘ydi. Adibning “O‘quv” she‘ridagi ushbu satrlar uning ta‘limga bo‘lgan munosabatini yaqqol ifodalaydi:

«Ko‘zingni och, jahonni ko‘r, o‘qu, o‘rgan, sadoqat qil, Vatan tuprog‘ini gulzor etarga bir jasorat qil».

U «Yangi usul» maktablari uchun yozgan metodik ko‘rsatmalarida o‘qituvchining shaxsiga ham yuqori talablar qo‘yadi. Fitratga ko‘ra, muallim faqat ma‘lumot beruvchi emas, balki millatni uyg‘otuvchi yetakchi bo‘lishi lozim. Uning

² Boltaboyev H. Fitrat va jadidchilik. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. –B. 15.



darsliklari sodda tilda yozilgan bo'lib, o'quvchini atrof-olamni tahlil qilishga o'rgatgan.

Badiiy meros – Ma'rifatning g'oyaviy quroli. Fitratning badiiy ijodi uning ma'rifiy konsepsiyasining ajralmas qismidir. Masalan, uning “Munozara” asarida jadid maktablari va eski maktab tarafdorlari o'rtasidagi bahs orqali yangilikning zarurligi ko'rsatiladi. Asardagi bir parchada aytilganidek:

«Bizga bugun kitobni shunchaki o'qish emas, balki undagi fanni hayotga tatbiq etish lozim. Yevropa fanni egallab ko'kka ko'tarildi, biz esa hanuz quruq bahslar bilan ovoramiz»³.

Uning dramatik asarlari “Abulfayzxon”, “Arslon” ham o'z mohiyatiga ko'ra siyosiy ma'rifat darslari edi. U tarixiy voqealar orqali xalqni o'z davlatiga ega bo'lishga va mustaqillikni qadrlashga o'rgatdi.

Fitratning ma'rifatparvarlik konsepsiyasida oila masalasi millat taqdirini belgilovchi eng muhim bo'g'in sifatida talqin etiladi. Uning “Oila” asarida shunday deyiladi:

“Har bir millatning saodati, davlatlarning tinchligi va rohati shu millatning oilaviy intizomiga bog'liqdir. Qayerda oila intizomi kuchli bo'lsa, mamlakat ham shunchalik quvvatli bo'lur”⁴. 1914-yildan boshlab uning «Rahbari najot» («Najot yo'li»), «Muxtasar islom tarixi», «Oila», «Mavludi sharif yoxud xayrul-bashar» nomli falsafiy-axloqiy asarlari bosilib chiqqan. «O'quv» (1917-y.), o'zbek tili qoidalari haqida «Ona tili» (1918-y.) darsliklari, «Eng eski turkiy adabiyoti namunalari» (1927-y.) majmuasi e'lon qilingan. Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Muhammad Solih, Turdi, Mashrab, Firdavsiy, Umar Xayyom, Mirzo Bedil haqida yozilgan risola va maqolalari e'lon qilingan. «O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi», «Sharqda shaxmat», «Amir Olimxonning hukmronlik davri» kabi tarixga oid

³ Fitrat A. Tanlangan asarlar. I jild: She'rlar, nasriy asarlar, dramalar. – Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti, 2000.– B. 82.

⁴ Fitrat A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti, 2000. – B. 12.



asarlar yaratgan. «Aruz haqida» (1936-y.) nomli monografiyasida Boburning «Aruz» risolasidagi turkiy aruzga oid kuzatishlariga asoslanib, bu vaznning o‘zbek she’riyatidagi o‘rnini ko‘rsatib bergan.

Fitrat ayollar ta’limini “*millatning hayot-mamot masalasi*” deb hisoblagan. U ayol kishining jaholatda qolishi kelajak avlodning ma’nan qashshoq bo‘lishiga olib kelishini uqtirgan. Adib oiladagi gigiyenadan tortib, bolaning psixologik rivojlanishigacha bo‘lgan masalalarni ma’rifat bilan bog‘laydi. Uning fikricha, oilada o‘zaro hurmat va ilm bo‘lmas ekan, jamiyatda ham adolat o‘rnatib bo‘lmaydi.

Xulosa. Abdurauf Fitratning ma’rifiy izlanishlari shunchaki o‘tmish xotirasi emas, balki bugungi zamonaviy dunyoda o‘zligini asrab qolishni istagan xalq uchun hayotiy dasturdir. U millatni faqat siyosiy ozodlikgina emas, balki ma’naviy erkinlik ham qutqara olishini isbotlab berdi. Fitrat asarlari yaxlit bir tizimni – ma’rifat orqali najot topish konsepsiyasini tashkil etadi. Uning jadidchilik mafkurasi negizida yotgan g‘oyalar hozirgi uchinchi renessans poydevorini qurishda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fitrat A. Tanlangan asarlar. I jild: She’rlar, nasriy asarlar, dramalar. – Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti, 2000. – 280 b.
2. Fitrat A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti, 2000. – 128 b.
3. Fitrat A. Rahbari najot. – Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti, 2001. – 160 b.
4. Boltaboyev H. Fitrat va jadidchilik (Ilmiy-tanqidiy maqolalar to‘plami). – Toshkent: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. – 256 b.
5. Boltaboyev H. Abdurauf Fitrat (Adabiy-tanqidiy ocherk). – Toshkent: Fan nashriyoti, 1996. – 112 b.
6. Qosimov B. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoiylik. – Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti, 2002. – 400 b.